

**TADBIRKORLIK HUQUQI SOHASIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHDA
XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA**

Javohir Sattorov Jahon o'gli

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim (biznes huquqi) talabasi

Email: javohirsattorov1129@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishning huquqiy asoslari, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati va ularni huquqiy tartibga solish zaruriyati asoslab beriladi. Xorijiy davlatlardagi ilg'or tajribalar o'rganilib, ularning milliy qonunchilikka moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlariga yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, yuzaga kelayotgan huquqiy muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, texnologiya, innovatsion tadbirkorlik, raqamli tadbirkorlik, elektron tijorat, elektron raqamli imzo.

**ЗАРУБЕЖНЫЙ И ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОГО ПРАВА**

Сатторов Жавохир Жахон ўғли

Студент магистратуры и заочного обучения (бизнес-право) Ташкентского государственного юридического университета

Email: javohirsattorov1129@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируются правовые основы внедрения цифровых технологий и инноваций в сфере предпринимательского права, опыт зарубежных стран, а также реформы, реализуемые в

Узбекистане. Кроме того, обоснована значимость современных технологий в ведении предпринимательской деятельности в условиях цифровой экономики и необходимость их правового регулирования. Изучен передовой опыт зарубежных государств и рассмотрены возможности его адаптации к национальному законодательству. Также разработаны предложения по созданию благоприятных условий для субъектов предпринимательства посредством внедрения инновационных технологий, выявлены возникающие правовые проблемы и пути их устранения.

Ключевые слова: инновация, технология, инновационное предпринимательство, цифровое предпринимательство, электронная коммерция, электронная цифровая подпись.

**FOREIGN AND NATIONAL EXPERIENCE IN THE
IMPLEMENTATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES AND
INNOVATIONS IN THE FIELD OF BUSINESS LAW**

Javohir Sattorov Jahon o'g'li

Master's student of the business law at Tashkent state university of law

Email: javohirsattorov1129@gmail.com

Abstract: This article analyzes the legal foundations for the implementation of digital technologies and innovations in the field of entrepreneurial law, the experience of foreign countries, and the reforms being carried out in Uzbekistan. It also substantiates the importance of modern technologies in conducting entrepreneurial activities in the context of the digital economy and the necessity of their legal regulation. Advanced foreign practices are studied, and the possibilities of adapting them to national legislation are examined. Furthermore, proposals are developed to eliminate legal challenges and

improve the legal environment for business entities through the implementation of innovative technologies.

Keywords: *Innovation, technology, innovative entrepreneurship, digital entrepreneurship, e-commerce, electronic digital signature.*

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon miqyosida raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar iqtisodiyotning barcha sohalarida, xususan, tadbirkorlik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tizimlarining samaradorligini oshirishga, balki ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligini ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik huquqi sohasi zamonaviy texnologiyalar ta’sirida sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Elektron shartnomalar, raqamli identifikatsiya, onlayn litsenziyalash va davlat xizmatlarining avtomatlashtirilgan tizimi – bularning barchasi ushbu sohada yangi huquqiy yondashuvlarni shakllantirishni talab etadi.

Dunyo tajribasida rivojlangan davlatlar – AQSh, Germaniya, Estoniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirishda ilg‘or yutuqlarga erishgan bo‘lib, ularning qonunchilik amaliyotida innovatsion texnologiyalar keng joriy etilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotga o‘tish, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, shaffoflik va qulay biznes muhiti yaratish yo‘lida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonlarda tadbirkorlik subyektlarining huquqiy maqomini belgilash, raqamli vositalar orqali huquq va majburiyatlarni amalga oshirish masalalari alohida e’tibor talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishning nazariy-huquqiy asoslari, xorijiy davlatlarning ilgʻor tajribalari, shuningdek, milliy qonunchilikdagi holat tahlil qilishdan iborat.

Ishda mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, statistik tahlil, sotsiologik tahlil, ilmiy manbalarni aniq tadqiq qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qoʻllash amaliyotini oʻrganish kabi bir qancha usullardan foydalanilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadbirkorlik huquqi — bu iqtisodiy faoliyatni yuritish boʻyicha subyektlarning huquqiy maqomi, ularning oʻzaro munosabatlari va davlat bilan boʻlgan aloqalarini tartibga soluvchi normativ tizimdir. Mamlakatimiz ijtimoiy iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida 2019-2021-yillarga moʻljallangan Oʻzbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, shu jumladan, qishloq xoʻjaligi, energetika, qurilish, taʼlim, sogʻliqni saqlashda innovatsion va texnologik rivojlanishni taʼminlash va ragʻbatlantirish borasida katta yutuqlarga erishildi. Buning natijasida tadbirkorlik sohasidainnovatsion tadbirkorlik faoliyatining yangi imkoniyatlarini kashf qilib, vaqt va mablagʻ tejash orqali koʻproq daromad keltirish manbai sifatida qaralmoqda¹.

Rus olimi A.B Suxorukov innovatsion faoliyatni tadbirkorlik faoliyatining bir turi sifatida koʻrib chiqish kerakligini aytadi. Shu munosabat bilan muallif

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Oʻzbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” 6765- sonli Farmoni.
SJIF: 5.051

“innovatsion faoliyat” atamasini “innovatsion tadbirkorlik faoliyati” atamasi bilan almashtirishni taklif qiladi.² Mashhur professor Lawrence Lessig "Code and Other Laws of Cyberspace" (1999) kitobida raqamli dunyoda "code is law" (kod qonundir) degan mashhur nazariyasini ilgari suradi. U raqamli platformalar va texnologiyalar huquqiy tartibga solish vositasi sifatida ishlashini tushuntiradi³.

So‘nggi yillarda bu sohada quyidagi texnologiyalar keng joriy etilmoqda:

- Elektron shartnomalar (e-contracts);
- Elektron identifikatsiya va elektron raqamli imzo (ERI);
- Raqamli litsenziyalash va ro‘yxatdan o‘tkazish tizimlari;
- Elektron arbitraj va sud xizmatlari;
- Sun‘iy intellekt asosidagi huquqiy maslahat tizimlari.

Bu texnologiyalar tadbirkorlar uchun qulaylik yaratibgina qolmay, shuningdek, huquqiy ishonchlilik va xavfsizlikni ta‘minlaydi.

Bu borada davlatimizda juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Prezidentning 2018-yil 22-yanvardagi “2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar milliy strategiyasini Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-5308-son qarorining 3-bandi, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonun loyihasini keng jamoatchilik muhokamasidan so‘ng Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritish. Shu paytgacha O‘zbekiston qonunchiligida innovatsiyalar sohasidagi munosabatlar, konsepsiyalar, ishtirokchilar tarkibi va ularning bu jarayonda o‘zaro hamkorligini, tajriba-sinovdan o‘tkazish mexanizmlarini samarali tashkil etish,

² Лаптев В.А., Соловяненко Н.И. Предпринимательское право в условиях инновационной (цифровой) экономики: пути развития // Юрист. 2019. № 5. С. 45 – 50.

³ Code and Other Laws of Cyberspace <https://lessig.org/images/resources/1999-Code.pdf>

ilmiy mahsulotlarni amaliyotga joriy etish va sanoatni rivojlantirish masalalarini tartibga soluvchi yagona qonunchilik hujjatining mavjud emasligi mazkur qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish zaruriyatini keltirib chiqardi. Nihoyat, davlat rahbari 2020-yil 24-iyul kuni “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunini imzoladi va u aynan shu kundan kuchga kirdi. 6 bob va 39 moddadan iborat qonun innovatsiyalar sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi innovatsion rivojlanishni huquqiy tartibga solishni ta‘minlash, ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash, innovatsion faoliyat uchun qulay muhit va infratuzilmani yaratish, innovatsion faoliyat sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish va boshqalar⁴.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinish ham shular jumlasidandir. Unga ko‘ra, elektron tijoratdagi shartnoma – tovarlar, ishlar, xizmatlar oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda taraflar o‘rtasida tuziladigan kelishuv hisoblanadi. S.V.Vasilyevning fikricha, elektron shartnomalar, shartnomaning yangi turi emas, balki innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda shartnoma tuzishning yangicha usuli hisoblanadi¹. Bunda shartnoma mazmuni emas, balki uning shakli o‘zgaradi. Ya’ni, shartnoma elektron tarzda tuziladi va u bilan bog‘liq barcha harakatlar ham elektron tarzda amalga oshiriladi. Bunday harakatlarga misol qilib, shartnomani elektron raqamli imzolardan foydalangan holda imzolash, yoki hatto, to‘lovlarni ham elektron tarzda amalga oshirish mumkinligini olsak bo‘ladi.

⁴ Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi. <https://daryo.uz/2018/01/23/harakatlar-strategiyasini-faol-tadbirkorlik-innovatsion-goyalar-va-texnologiyalarni-qollab-quvvatlash-yilida-amalga-oshirishga-oid-davlat-dasturi-tasdiqlandi>

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, elektron shartnoma deganda, elektron savdo maydonchasida tuzilgan, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi, o'zgartiruvchi va bekor qiluvchi kelishuv tushunilar ekan⁵.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot va axborot texnologiyalari sohasidagi so'nggi yutuqlar natijasida odamlar hayot darajasi tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi. Internet jaxon axborot tizimidan foydalangan holda shartnoma tuzishni qonunchiligimiz cheklamaydi balki u Fuqarolik kodeksining 366moddasida Yozma shartnoma taraflar imzolagan bitta hujjatni tuzish yo'li bilan, shuningdek pochta, telegraf, teletayp, telefon, elektron aloqa yoki hujjat shartnomadagi tarafdin chiqqanligini ishonchli suratda aniqlash imkonini beradigan boshqa aloqa yordamida hujjatlar almashish yo'li bilan tuzilishi mumkinligi belgilangan. Elektron tijoratda savod qilish, shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish maqsadida "Elektron tijorat to'g'risida"gi 792- sonli qonun qabul qilingan. Unga ko'ra Elektron tijorat bu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi hisoblanadi. Unda belgilangan barcha bitimlar oddiy fuqarolik bitimlari bo'lib, ularning asosiy o'ziga xos xususiyati shundaki, fuqarolik bitimlarini tuzish yoki bajarish va boshqa qonuniy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirish kontragentlarning masofadan turib kirish sharoitida va maxsus mexanizm (elektron ma'lumotlar almashinuvi, elektron xabar almashish va boshqalar) yordamida amalga oshiriladi. Elektron hujjat va qog'ozli hujjat


⁵ Aliyeva Marjona Obid qizi "Elektron tijoratda shartnoma tushunchasi va belgilari" maqola. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13904465>

o'rtasidagi farq faqat uning rekvizitlari va hujjat tashuvchisining o'ziga xos xususiyati bilan ifodalanadi. Ko'pincha, elektron hujjatning xususiyatlarini tavsiflash uchun uning tugallanishini ko'rsatish kifoya. Shu o'rinda biz elektron shartnoma nima ekanligi bilib olsihimiz kerak. Elektron shartnoma bu dasturiy ta'minot tizimi tomonidan modellashtirilgan, aniqlangan, bajarilgan va joylashtirilgan shartnoma. Internetda tuzilgan tashqi savdo shartnomalarini ikki turga bo'lish mumkin: – aloqa vositasi sifatida, ya'ni faksning analogi sifatida Internet orqali tuzilgan shartnomalar; – huquqiy maydondagi kabi Internetda tuzilgan shartnomalar. Elektron shartnomalarni tuzishda yuzaga keladigan asosiy muammolar: – shartnoma joyini aniqlashning qiyinligi; shartnoma tuzish faktining isbotliligi, shartnomada keltirilgan ma'lumotlarning xavfsizligi va o'zgarmasligi; – shartnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning maxfiyligi. Internet orqali shartnomalar tuzish juda muammoli hisoblanadi. Shartnoma tuzish uchun provayder Internetga ulangan serverga ommaviy taklifni joylashtiradi. Tavsiya etilgan shartlar bo'yicha shartnoma tuzishni istagan har qanday shaxs taklifni shartnoma shaklini tuzish va imzolash orqali qabul qiladi. Nashr qilingan ma'lumotlarga ko'ra, har yili Internet orqali amalga oshiriladigan tovar aylanmasi hajmi 30-35 foizga oshadi. Hozirgi kunda eng ommalashgan savdo platformalarini jumladan "Uzum Market", "Sello" "Bir-bir" kabilarni misol qilib keltirsak bo'ladi. Kompyuter orqali uzatiladigan shartnomaviy hujjatlarni avtorizatsiya qilish elektron raqamli imzodan foydalanish bilan ta'minlanadi, ammo bu aloqalarni o'rnatgan pudratchilar o'rtasida soddalashtirilishi mumkin. Mamlakatimizda elektron raqamli imzolardan foydalanish O'zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o’tishimiz kerakki, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.03.2024 yildagi “Tadbirkorlik subyektlariga xalqaro platformalar orqali raqamli texnologiyalar sohasida xizmatlar ko’rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, ushbu qarorda 2024-yil 1-apreldan boshlab huquqiy eksperiment doirasida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o’rinlarda — IT-park) rezidentlari tomonidan raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar (ular amalga oshirishi ruxsat etilgan faoliyat turlari ro’yxatiga muvofiq) eksporti bo’yicha xalqaro platformalarda elektron shaklda rasmiylashtirilgan qiymati 100 ming AQSh dollarigacha (yoki ushbu ekvivalentga teng miqdorgacha) bo’lgan shartnomalar (kelishuv, hisobvaraqq-faktura, invoys) elektron hujjat sifatida tan olinadi hamda ularning qog’oz shaklidagi nusxasi talab etilmasligi, raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksporti bo’yicha shartnomalarni rasmiylashtirish ruxsat etiladigan xalqaro platformalar ro’yxati Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan⁶. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida ham Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ikki oy muddatda “140 ta ilg’or sanoat korxonasi” dasturini amalga oshirish jarayonlarini raqamlashtirishni nazarda tutuvchi, shu jumladan ushbu dasturga kiritilgan sanoat loyihalarini tadbirkorlik subyektlariga ochiq tanlov asosida taklif qilish imkoniyatiga ega elektron platformani ishga tushirishi, 2024-yil 1-yanvardan boshlab hisobotlarni shakllantirish va topshirish jarayonlarini bosqichma-bosqich

⁶ Prezidentning “Tadbirkorlik subyektlariga xalqaro platformalar orqali raqamli texnologiyalar sohasida xizmatlar ko’rsatish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori <https://lex.uz/docs/-6840502>
SJIF: 5.051

raqamlashtirish hisobiga ularning qog'oz shaklini bekor qilish kabi qator vazifalar



1-rasm. 2021 yilda tadbirkorlik faoliyatiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish holati

Yuqoridagi rasmda 2021-yilda O'zbekistondagi innovatsion tashkilotlar va ular yaratgan innovatsiyalar soni keltirib o'tilgan bo'lib, bunda mamlakatimizda innovatsion faol tashkilotlar o'rtacha 2 tadan innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan har-bir innovatsion faoliyat bilan mashg'ul tashkilotga Andijon, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida o'rtacha 3 tadan innovatsiyalar, Buxoro, Navoiy, Namangan, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o'rtacha 2 tadan innovatsiya, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Jizzax, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari o'rtacha 1 tadan innovatsiyalar amaliyotga joriy qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkinki innovatsiyalar kam miqdorda qo'llaniladigan hududlarda zaruriy choralar ya'ni, innovatsion faoliyatni rivoji,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori <https://lex.uz/docs/-6591947>

sohaga qo'llashda mavjud muammolarni bartaraf etish, davlat dodatsiyalarini ajratish, xodimlar bilim, malaka, ko'nikmasini innovasion faoliyatga mos ravishda malaka darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali hududlarga innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish tendensiyasini ko'tarishish mumkin. Innovatsiya atamasining mazmunidan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qachonki har qanday kashfiyotlar, yangi voqealar, xizmatlar va usullar turlari tarqalishiga qabul qilinsa, o'shanda xalq ommasi tomonidan tan olinadi. Bunda yangilikning joriy etilishi yangilikni qo'llash jarayonini bildiradi va yangilikning tarqatilishiga qabul qilinishi vaqtdan boshlab yangi sifat – innovatsiyaga aylanadi. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Bugungi kunda O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi 5 mingga yaqin hujjat mavjud. Ularning nihoyatda ko'pligi amalda qo'llashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda va bu tadbirkorlarning asosli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda edi. Shu bois 100 dan ortiq hujjatni, jumladan, 9 ta qonunni o'zida jamlagan Tadbirkorlik kodeksini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan edi. Oliy Majlisi Senatining 15-avgustdagi yig'ilishida Tadbirkorlik kodeksi ma'qullandi ammo haligacha imzolanmagan⁸.

Tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha Xorij davlatlari jumladan, Yevropa davlatlari juda ilgarilab ketgan. Har bir davlat bu bo'yicha alohida tajribaga ega. Jumladan:

Yevropa Ittifoqining raqamli yondashuvi. Yevropa Ittifoqi (YeI) o'zining "Digital Single Market" (Raqamli yagona bozor) strategiyasi orqali barcha a'zo davlatlarda raqamli texnologiyalarni bir xil me'yor asosida joriy etishni maqsad qilgan.

⁸ Senat Tadbirkorlik kodeksini ma'qulladi. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/15/business-code/>
SJIF: 5.051

Bu strategiya quyidagi asosiy yoʻnalishlarni qamrab oladi:

- Elektron identifikatsiya va elektron imzo (eIDAS reglamenti);
- Onlayn biznes roʻyxatga olishni soddalashtirish;
- Raqamli shartnomalar va elektron tijoratni tartibga solish;
- Maʼlumotlar xavfsizligi va shaxsiy maʼlumotlarni himoya qilish

(GDPR reglamenti).

Estoniya tajribasi. Estoniya dunyoda raqamli davlat modelini joriy qilgan ilk davlatlardan biri hisoblanadi. Tadbirkorlar uchun barcha davlat xizmatlari onlayn tarzda, maxsus "e-Residency" platformasi orqali amalga oshiriladi.

Estoniya tajribasida:

- Kompaniya roʻyxatdan oʻtkazish 15 daqiqada onlayn amalga oshiriladi;
- Elektron hujjatlar qonuniy kuchga ega;
- Soliq hisobotlari avtomatlashtirilgan tizim orqali taqdim etiladi.

Germaniya tajribasi. Germaniya raqamli innovatsiyalarni ishlab chiqarish sanoatiga joriy etish bilan bir qatorda, kichik va oʻrta biznes (KOB) subyektlarini raqamli xizmatlardan foydalanishga undaydi.

Bu borada "Digital Hub Initiative" va "Mittelstand 4.0" dasturlari orqali:

- Raqamli transformatsiya markazlari tashkil etilgan;
- Startaplar uchun soliq va texnologik imtiyozlar taqdim etiladi;
- Raqamli savodxonlik va huquqiy maslahat xizmatlari yoʻlga qoʻyilgan.

Niderlandiya va Shvetsiya tajribasi. Bu davlatlarda tadbirkorlik faoliyatida blokcheyn texnologiyasi, aqlli shartnomalar (smart contracts) va fintex platformalar faol joriy etilgan. Tadbirkorlar koʻpchilik hollarda oʻzaro

shartnomalarni elektron imzo orqali tuzadi, soliq va hisob-kitob tizimlari to'liq raqamlashtirilgan⁹.

Amerika Qo'shma Shtatlari jahonda texnologik innovatsiyalar markazi sifatida tan olingan. AQSHda tadbirkorlik huquqi federal va shtatlar darajasida tartibga solinadi, bu esa huquqiy moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Xususan, AQSHda Elektron tijorat to'g'risidagi qonunlar (Electronic Signatures in Global and National Commerce Act – E-SIGN Act) orqali elektron imzo va hujjatlar qonuniy kuchga ega deb e'tirof etilgan. Startaplar uchun inkubator va akselerator dasturlari mavjud bo'lib, ularga soliq imtiyozlari va texnologik yordam ko'rsatiladi. Delaver shtati kompaniyalarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish va ularning elektron huquqiy munosabatlarini yuritish bo'yicha yetakchi hisoblanadi. Raqamli moliya va fintex sohasida AQSH huquqiy jihatdan o'zgaruvchan bozor sharoitiga moslashuvchan tartib-taomillarni yaratgan.¹⁰

AQSH va Yevropa davlatlari tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalarni joriy qilishda turli yondashuvlarga ega bo'lsa-da, ularning har ikkisi tadbirkorlar uchun qulay va zamonaviy huquqiy muhit yaratishga xizmat qilmoqda. AQSHning erkin bozor tamoyiliga asoslangan huquqiy moslashuvchanligi, Yevropaning esa ehtiyotkorlik va xavfsizlikka urg'u beruvchi yondashuvi o'ziga xosdir. O'zbekiston uchun bu tajribalarni o'rganish va huquqiy modelini zamon talablari asosida takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

XULOSA

Tadbirkorlik huquqi sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy qilish bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida muhim

⁹ Laptev V.A., Solovyanenko N.I. Entrepreneurial Law in an Innovative (Digital) Economy: Ways of Development // Lawyer. 2019. No. 5. P. 45 - 50.

¹⁰ Vaypan V.A. Legal regulation of the digital economy // Entrepreneurial Law. Appendix «Law and Business». 2018. No. 1. P. 12 - 17.

ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar, jumladan AQSH, Estoniya, Germaniya va Singapur kabi mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli huquqiy infratuzilmani shakllantirish, elektron xizmatlarni yuridik jihatdan tartibga solish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga qulay raqamli muhit yaratish ularning iqtisodiy rivojlanishiga kuchli turtki bergan. O'zbekistonda ham raqamli texnologiyalarni joriy qilish borasida muayyan yutuqlar mavjud bo'lib, davlat xizmatlarini elektronlashtirish, biznesni onlayn ro'yxatdan o'tkazish va elektron hujjat aylanishi tizimlarining joriy etilishi milliy tajribaning ijobiy namunasidir. Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va tadbirkorlar uchun raqamli savodxonlikni oshirish zarurati mavjud.

Shu bo'yicha bir qancha takliflarni berib o'tsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jumladan,

1. Elektron shartnomalar va raqamli imzolarni tan olish tartibini soddalashtirish va amaliy qo'llanmasini ishlab chiqish; E-huquqiy munosabatlarda yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha maxsus "Raqamli sud" modullarini joriy etish.

2. Startaplar va texnoparklar uchun huquqiy imtiyozlar yaratish va AQSHdagi Delaver tajribasi asosida onlayn ro'yxatdan o'tish, faoliyatni boshlash va yopishning huquqiy jarayonlarini soddalashtirish.

3. Tadbirkorlar uchun bepul raqamli huquqiy treninglar va vebinarlarni yo'lga qo'yish; Raqamli texnologiyalardan foydalanishda mas'uliyat va qonunchilik bo'yicha qo'llanmalar yaratish.

4. “Tadbirkorlik Kodeksida” tadbirkorlik sohasida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish” deb nomlangan bobni kiritish.

REFERENCES

1. Askarov, J. I Biznes huquqi [Matn]: o'quv qo'llanma / LT. Askarov. - T.: TDYU nashriyoti, 2024-216 b.

2. Степанова Альбина Ринатовна, Козлова Галина Владимировна, Долгов Станислав Федорович “ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ” // StudNet. 2022. №6.

3. Михайлов А.В. Проблемы становления цифровой экономики и вопросы развития предпринимательского права // Актуальные проблемы российского права. 2018. № 11. С. 68 - 73.

4. Vaypan V.A. Legal regulation of the digital economy // Entrepreneurial Law. Appendix «Law and Business». 2018. No. 1. P. 12 – 17.

5. Mikhailov A.V. Problems of the formation of the digital economy and issues of development of entrepreneurial law // Actual problems of Russian law. 2018. No. 11. S. 68 – 73.

6. O'zbekiston Respublikasining “Elektron Tijorat to'g'risida”gi qonun <https://lex.uz/docs/-6213382>

7. “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi qonun <https://lex.uz/ru/docs/6234904>

8. E-commerce laws [text]: study guide / Ammar Younnas. – T.: TSUL Publish. 2024. -88 p.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” 6765-sonli Farmoni.

10. 2022-yil 7 Iyul O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-yil. 22-dekabr, <http://uza.uz/uz/documents/o'zbekistonrespublikasi-prezidenti>

11. Boboqulov Sanjar Baxronkulovich, Qadamboyeva Dilso‘z Doniyor Qizi “Raqamli iqtisodiyoti sharoitida innovatsion texnologiyalar asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari” // JMBM. 2023. №7.